

Мундарижа

Содержание

1-INVEST(ASOSIY) YILLIK HISOBOT SHAKLINI TO'LDIRISH BO'YICHA TUSHUNTIRISHLAR.....	2
РАЗЪЯСНЕНИЯ ПО ЗАПОЛНЕНИЮ ФОРМУ ОТЧЕТА 1-INVEST (ASOSIY) ГODOBAYА	22
1-NOTIJORAT YILLIK HISOBOT SHAKLINING 4-5 BOBLARINI TO'LDIRISH BO'YICHA TUSHUNTIRISHLAR	42
РАЗЪЯСНЕНИЯ ПО ЗАПОЛНЕНИЮ 4-5 РАЗДЕЛОВ ФОРМЫ ОТЧЕТА 1-NOTIJORAT ГODOBAYА	58
1-NNT YILLIK HISOBOT SHAKLINING 6-BOBINI TO'LDIRISH BO'YICHA TUSHUNTIRISHLAR.....	74
РАЗЪЯСНЕНИЯ ПО ЗАПОЛНЕНИЮ 6-РАЗДЕЛА ФОРМЫ ОТЧЕТА 1-NNT ГODOBAYА	89
1-FX YILLIK HISOBOT SHAKLINING 9-BOBINI TO'LDIRISH BO'YICHA TUSHUNTIRISHLAR	99
РАЗЪЯСНЕНИЯ ПО ЗАПОЛНЕНИЮ 9-РАЗДЕЛА ФОРМЫ ОТЧЕТА 1-FX ГODOBAYА.....	109

1-INVEST(ASOSIY) YILLIK HISOBOT SHAKLINI TO'LDIRISH BO'YICHA TUSHUNTIRISHLAR

1-invest (asosiy) (yillik) hisobot shaklini iqtisodiy faoliyatning barcha turlari bo'yicha yuridik shaxslar, qurilish sohasidagi xo'jalik boshqaruvi organlarini qo'shgan holda (xodimlar soni yillik o'rtacha 5 kishidan kam bo'lgan va (yoki) yillik tushumi bazaviy hisoblash miqdorining 2 000 barobarigacha bo'lgan mikrofirma va kichik korxonalar (bundan davlat ulushi 50 foiz va undan yuqori bo'lgan korxonalar, dasturlarga kiritilgan va aksiz solig'i to'lovchi subyektlar mustasno), fermer xo'jaliklari va notijorat tashkilotlardan tashqari) taqdim etadilar. **Yuridik shaxs mazkur hisobotni o'zining alohida bo'linmalari ma'lumotlarini qo'shgan holda taqdim etadi.** Korxonaning alohida bo'linmalari mazkur hisobotni taqdim etmaydi.

O'zi joylashmagan hududda yoki ikki va undan ortiq shahar va tumanlarda investitsiya faoliyatini amalga oshiruvchi yuridik shaxslar hisobotning alohida ko'rsatkichlari, ma'lumotlarini har bir hududning xuddi shu shahar va tumanlari bo'yicha alohida to'ldiradilar. O'zi joylashgan hududda (biror bir shahar va tumanda) investitsiya faoliyatini amalga oshiruvchi yuridik shaxslar hisobotda o'z hududi bo'yicha alohida ko'rsatkichlar ma'lumotlarini ham to'ldiradilar.

Investor tomonidan investitsiya loyihalari (yangi binolar va inshootlar qurilishi, kengaytirish, rekonstruksiya qilish va h. k.)ni amalga oshirish huquqi buyurtmachiga berilgan bo'lsa, u holda hisobotni buyurtmachi taqdim etadi. Obyekt qurilishida buyurtmachi hisoblanmagan investorning shu kabi investitsiyalar to'g'risidagi ma'lumotlari 1-invest (asosiy) shaklidagi hisobotga kiritilmaydi.

Investitsiyalar bo'yicha axborotlar joriy narxlarda (ming so'm), chet el investitsiyalari va kreditlari – milliy valyuta(ming so'm)da taqdim etiladi. Hisobotni to'ldirishda chet el valyutasini milliy valyutaga nisbati O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan operatsiyani amalga oshirish kuniga o'ratilgan davlat kursi bo'yicha amalga oshiriladi (**K-ustun**).

1-bobda asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar asosiy fondlar tasniflagichi, moliyalashtirish manbalari, investor mamlakatlar, qo'yilma turlari bo'yicha, ma'muriy hududiy tuzilmalarni belgilash tizimi idoraviy tasniflagichi (MHOB), iqtisodiy faoliyat turlari umumdavlat tasniflagichiga (IFUT) muvofiq iqtisodiy faoliyat turlari, hududlar kesimida to'ldiriladi.

Asosiy fondlar — bir yildan ortiq muddat davomida ishlab chiqarish jarayonlarida bir necha bor yoki uzluksiz foydalaniladigan ishlab chiqarilgan aktivlardir.

A-ustunda tanlanishi kerak bo'lgan **asosiy fondlar tasniflagichi** quyidagilardan iborat:

11-kod “turar-joy binolari qurilishi” — aholining yashashi uchun xizmat qiladigan, ishlab chiqarishda ishtirok etmaydigan, noishlab chiqarish asosiy fondlaridir (ko'p qavatli uylar, yakka tartibdagi uylar xizmat uylari, yotoqxonalar);

21-kod “noturar joy binolari qurilishi” — yashash uchun mo'ljallanmagan, korxonalar va tashkilot faoliyatini ta'minlaydigan asosiy fondlardir (zavod va fabrikalar binolari, omborxonalar, ofis va ma'muriy binolar, savdo markazlari, do'konlar, maktab, shifoxona, bog'cha binolari);

22-kod “inshootlar qurilishi” — texnologik yoki xo'jalik jarayonini ta'minlaydigan, bino bo'lmagan asosiy fondlardir (ko'priklar, avtomobil va temir yo'llar, quvurlar, elektr uzatish tarmoqlari, kanalizatsiya tizimlari, to'g'onlar, suv omborlari, shaxtalar, tunnel va estakadalar);

23-kod “yerni yaxshilash”—yerni obodonlashtirishga, uning sifatini yoki unumdorligini sezilarli darajada oshirishga olib keladigan yoki uning yomonlashishini oldini oluvchi harakatlar natijasidir, masalan, melioratsiya ishlari, yerlarni tozalash, meliorativ holatini tiklash, relegendi o'zgartirishga(hududni rejalashtirish) xarajatlar;

31-kod “transport uskunalari” — bu yuk va yo'lovchilarni tashish, shuningdek korxonalar faoliyatini ta'minlash uchun mo'ljallangan asosiy fondlar;

31-1-kod “ulardan: import qilingan transport uskunalari” — A ustundagi 31 kod “transport uskunalari” import orqali xorijdan olib kelingani alohida aks ettiriladi;

32-kod orqali axborot, kompyuter va telekommunikatsiya (AKT) uskunalari —axborotni yaratish, qayta ishlash, saqlash va uzatish uchun mo'ljallangan **asosiy fondlar** (kompyuterlar, printer, skaner, nusxa ko'chirish qurilmalari, tarmoq uskunalari, telekommunikatsiya qurilmalari, ma'lumotlarni saqlash qurilmalari, videokuzatuv va signalizatsiya tizimlari);

32-1-kod “ulardan: import qilingan axborot, kompyuter va telekommunikatsiya (AKT) uskunalari” — A ustundagi 32 kod “AKT uskunalari” import orqali xorijdan olib kelingani alohida aks ettiriladi;

33-kod orqali sotib olingan **boshqa mashina va uskunalari** — ishlab chiqarish yoki xizmat ko'rsatish jarayonida foydalaniladigan, **asosiy fondlar** tarkibiga kiruvchi, lekin transport, AKT yoki maxsus uskunalarga kirmaydigan barcha turdagi mexanik va elektr qurilmalar (umumiy va maxsus ishlarga mo'ljallangan mashina va uskunalari, elektr uskunalari, o'lchash nazorat qilish sinasi, navigatsiya va boshqa maqsadlardagi priborlar va asboblari, barcha turdagi soatlar, rentgen, elektr tibbiyot va terapevtik uskunalari, optik priborlar va foto uskunalari, mebel, musiqa asboblari va sport uchun uskunalari);

33-1-kod “ulardan: import qilingan boshqa mashina va uskunalari” — A ustundagi 32 kod “boshqa mashina va uskunalari” import orqali xorijdan olib kelingani alohida aks ettiriladi;

33-2-kod “boshqa mashina va uskunalari” tarkibidan **mebel va boshqa sanoat mahsulotlari** — A ustunda 33 kod orqali aks ettirilgan boshqa mashina va uskunalardan **mebel va boshqa sanoat mahsulotlari** alohida ajratilib ko'rsatiladi;

51-kod “bir necha marta mahsulot beruvchi, xayvonlar resurslari” — bu korxonalar yoki xo'jalikda uzoq muddat foydalaniladigan va mahsulot berish qobiliyati bilan iqtisodiy foyda keltiradigan hayvonlar (yirik shoxli qoramollar, qo'y va echkilar, otlar, tuyalar va boshqalar);

52-kod “bir necha marta mahsulot beruvchi daraxtlar, qishloq xo‘jalik ekinlari va ko‘chatlar resurslari” — xo‘jalikda uzoq muddat foydalanuvchi, bir necha mavsum yoki yillarda mahsulot beruvchi tabiiy resurslardir (ko‘p yillik mevali ekinzorlar, rezavorlar, tokzorlar, efir moyli ekinlar, dorivor o‘simliklar, manzarali ko‘p yillik ekinzorlar);

60-kod “noishlab chiqarish aktivlarga mulk huquqini berish bilan bog‘liq xarajatlar” — bu korxonada yoki tashkilotning ishlab chiqarish yoki xizmat ko‘rsatish faoliyatida bevosita qatnashmaydigan, lekin asosiy fondlar yoki boshqa aktivlar huquqiy egalik huquqini olishga qaratilgan xarajatlardir (yer uchastkasi yoki bino-inshoot sotib olish xarajatlari, notarial xizmatlar, mulkni ro‘yxatga olish to‘lovlari va boshqalar);

71-kod “ilmiy tadqiqotlar va ishlanmalar” — o‘z kuchi yoki belgilangan ishlar buyicha buyurtmachi bilan shartnoma asosida ilmiy-tadqiqot, tajriba-konstruktorlik va texnologik ishlarni bajaruvchi tashkilotlar faqatgina huquqiy himoyaga ega bo‘lgan va bo‘lmagan, natijaga erishilgan ilmiy-tadqiqot, tajriba-konstruktorlik va texnologik ishlarga xarajatlarni ko‘rsatadilar. 11-son BHMS “Ilmiy-tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlab chiqishlarga xarajatlar”da ko‘zda tutilgan qo‘yilmalar sifatida ilmiy tadqiqot, tajriba konstruktorlik va texnologik ishlab chiqishlarga xarajatlar e‘tirof etilgan. (biotexnologiya hamda boshqa tabiiy va texnika fanlari, ijtimoiy va gumanitar fanlar sohasidagi sohasidagi ilmiy tadqiqotlar va ishlanmalar);

72-kod “foydali qazilmalar zahiralari razvedka qilish va baholash” — bu yer osti resurslarini aniqlash, ularning miqdori va sifatini o‘rganish, keyinchalik iqtisodiy foydalanish imkoniyatini baholashga qaratilgan uzoq muddatli xarajatlar bo‘lib, ular **asosiy fondlar** tarkibiga kiritiladi (suyuq va gazsimon foydali qazilmalar zahiralari razvedka qilish va baholash, boshqa foydali qazilmalar zahiralari razvedka qilish va baholash);

73-kod “kompyuter dasturiy ta‘minoti va ma‘lumotlar bazalari” — kompyuter tizimlari, hamda amaliy dasturiy ta‘minot va ma‘lumotlar bazalari uchun kompyuter dasturiy ta‘minotini yaratish va xarid qilishga ketgan xarajatlar aks ettiriladi;

74-kod “ko‘ngilochar, adabiy va badiiy asarlarning asl nusxalari” — kinofilmlarni asl nusxalarini, tasviriy san‘at, haykaltaroshlik, grafika, dizayn va tasviriy san‘atning boshqa asarlari, adabiyot va musiqiy asarlar mualliflari qo‘lyozmalari asl nusxalari, muallif o‘zi qo‘li bilan yoki texnik qurilma yordamida yozgan va imzolangan qo‘lyozmalari, hamda muallif o‘zi yoki uning boshchiligida yaratilgan amaliy san‘at asarlari nusxalariga xarajatlar o‘z aksini topadi;

79-kod “boshqa intellektual mulk mahsulotlari” — bu korxonada yoki tashkilotning yaratgan intellektual mehnati natijasida hosil bo‘lgan, asosiy fondlar tarkibiga kiruvchi mahsulotlardir (patentlar, litsenziyalar, savdo belgisi va brendlar, nou-xaular va boshqalar);

80-kod “yuqoridaglardan tashqari: boshqalar” — yuqorida keltirilgan asosiy fondlardan tashqari boshqa xarajatlar. Ushbu kod orqali 1-ustunda qanday xarajat ko‘rsatilganligini hisobot shaklini yakuniy qismida izoh sifatida yozib qoldirishi kerak.

A ustunda asosiy fond turiga ko‘ra “mashina, uskunalari, transport vositalari, ishlab chiqarish va xo‘jalik jihozlari qiymati” - mashinalar, transport vositalari, uskuna, asbob va jihozni sotib olishga xarajatlar (qurilish hisob qiymatiga kiradigan va kirmaydigan) 31-33 kodlar orqali alohida aks ettirilishini aytib o‘tish joiz.

Uzoq siklli ishlab chiqarishni hamda ishlab chiqaruvchilar tomonidan oraliq hisob ishlarini talab qiladigan asbob-uskunalar uchun to‘lov shakli buyurtmachi tomonidan asbob-uskuna qismlarining tayyor bo‘lganlik darajasi to‘g‘risidagi dalolatnoma asosida amalga oshiriladi.

31-33 kodlar orqali ko‘rsatiladigan asosiy fondlarga investitsiyalar tarkibiga: qurilish hisob qiymatiga kiritilmagan mashina va uskunalari qiymati, shuningdek, yig‘ma – qismlarga bo‘linadigan va ko‘chma inventar binolar, hamda ustaxonalari; tashkilotlar uchun harid qilinadigan avtomobillar, kompyuterlar, hisoblash uskunalari, kassa apparatlari va boshqa asbob-uskunalar qiymati kiradi. Mazkur satrda 07 hisobda “O‘rnatishga uskunalari” hisobga olinadigan mashina va uskunalarning qiymati ham aks ettiriladi.

Ushbu asosiy fondlarga o‘zlashtirilgan investitsiyalarga quyidagilar **kirmaydi**: olib sotish maqsadida harid qilingan mashinalar, transport vositalari, uskunalari, ishlab chiqarish va xo‘jalik anjomlari; bino qiymatiga kiritiluvchi sanitar-texnika va boshqa uskunalari; ishga tushirish xarajatlari: yangi ishlab chiqarishni, sex va agregatlarni, barcha mashina va mexanizmlar (bosim ostida, loyihada ko‘zda tutilgan, sinov yo‘li bilan ishlab chiqarilgan mahsulotlar)ni kompleks qayta tekshirish orqali tayyorgarlik darajasini nazorat qilish.

D-ustunda quyidagi moliyalashtirish manbalari kodlari qo‘yiladi:

1-kod bilan Respublika budjet mablag‘lari hisobidan moliyalashtiriladigan investitsiyalar aks ettiriladi: Davlat Investitsiya dasturiga kiritilgan obyektlar; budjet tashkilotlari va muassasalari (oliy o‘quv yurtlari, maktablar, shifoxonalari va boshqalar) tomonidan uskuna va inventarlar harid qilish.

2-kod orqali asosiy vositalarni investitsiyalashga (foйда; asosiy vositalarni to‘liq tiklash uchun ketgan amortizatsiya xarajatlari; rezerv (qo‘shimcha) fond mablag‘lari; tashkilot zimmasidagi soliqlar; o‘zbek ta‘sischilarining ustav fondga qo‘yilmalari tashkilot qurilishida qo‘shgan ulushidan kelgan mablag‘lar;) qaratilgan **“homiy rezident va tashkilotning o‘z mablag‘lari”** ko‘rsatiladi.

3-kod bilan Tiklanish va taraqqiyot jamg‘armasi hisobidan kiritilgan investitsiyalar ko‘rsatiladi.

4-kod bilan to‘g‘ridan-to‘g‘ri investorlar tomonidan kiritilgan **xorijiy investitsiyalar** aks ettiriladi, to‘g‘ridan-to‘g‘ri investorlar – bu huquqiy yoki jismoniy shaxs bo‘lib, tashkilotning to‘liq yoki ustav kapitalining 10 foizidan ko‘prog‘iga ega bo‘lib, tashkilot boshqaruvida qatnashish huquqini beradi.

5-kod bilan **boshqa chet el investitsiyalariga** to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalardan boshqa investitsiyalar, xususan joriy aktivlar hisobidan investitsiyalar, xorijiy investor tomonidan beg'araz yordamlar, grantlar va boshqalar aks ettiriladi.

6-kod orqali **O'zbekiston Respublikasi kafolati bilan chet el kreditlari** ko'rsatiladi.

7-kod orqali **kafolatlanmagan chet el kreditlari** - tashkilot chet ellik boshqaruvchisidan olingan, savdo, bank (chet el banklari va boshqa moliyaviy tashkilotlardan olingan), norezident tashkilotlar bilan lizing shartnomalari va boshqa aks ettiriladi.

8-kod orqali rezident **banklar kreditlarini** o'zlashtirilishi hisobidan bo'lgan investitsiyalar, ular bilan lizing bitimlarini qo'shgan holda, shuningdek, **boshqa tashkilotlar (bankdan tashqari) qarz mablag'lari**, shu jumladan qaytarib berish sharti bilan olingan markazlashmagan investitsiya fondlari, O'zbekiston Respublikasi rezidenti bo'lgan lizing kompaniyalari va boshqa tashkilotlar bilan lizing shartnomalari hisobiga amalga oshirilgan investitsiyalar ko'rsatiladi.

9-kod orqali **Suv ta'minoti va kanalizatsiya tizimlarini rivojlantirish jamg'armasi** hisobidan investitsiyalar aks ettiriladi.

10-kod bilan **"reinvestitsiyalar"** – har qanday daromad (foyda, foizlar, dividendlar, litsenziya texnik yordam va boshqalar) hisobidan kiritilgan investitsiyalar ko'rsatiladi.

11-kod orqali xalqaro institutlar, jamg'armalar va boshqa tashkilotlar tomonidan moliyaviy qollab-quvvatlash sifatida beriladigan **xorijiy grantlar** aks ettiriladi.

12-kod orqali **xorijiy texnik ko'mak** ya'ni xalqaro donorlar tomonidan beriladigan beg'araz yordam ko'rinishidagi vositalar aks ettiriladi

13-kod bilan **mahalliy budjet mablag'lari** hisobidan o'zlashtirilgan investitsiyalar aks ettiriladi, bunga mahalliy organ boshqarmalari qabul qilgan normativ hujjatlar asos bo'ladi.

14-kod orqali **aholi mablag'lari** hisobidan investitsiyalar aks ettiriladi.

E ustunda chet el investitsiya va kreditlari ishtirokidagi loyihalar bo'yicha to'ldiriladi, ya'ni xorijiy investitsiya va kreditlar qaysi **mamlakatlar yoki xalqaro tashkilotlardan** kiritilayotganiga ko'ra mos keluvchi kodni ro'yxatdan (**3-ilova**) tanlab ko'rsatiladi.

G ustunda Iqtisodiy faoliyat turlari ro'yxati va xos raqamlari qo'yiladi (**Iqtisodiy faoliyat turi kodlari "Uzstandart" agentligining 2011 yil 28 yanvardagi № 05-268 – son qarori bilan tasdiqlangan "Umumdavlat iqtisodiy faoliyat turlari tasniflagichi"ga muvofiq qo'yiladi**). Ushbu ustunda korxonalar **qaysi iqtisodiy faoliyat turiga investitsiya kiritayotganiga** qarab ro'yxatdan (**1-ilova**) mos kodni tanlash orqali, shu jumladan kreativ industriya sohasidagi iqtisodiy faoliyat turlariga investitsiyalar **2-ilovaga** muvofiq ko'rsatiladi.

J ustunda 1-kod orqali bino va inshootlarning qurilishi, shuningdek, qurilish (yangi qurilish,) smetasiga kiritilgan mashinalar, uskunalar, inventarlar uchun kiritilgan investitsiyalar aks ettiriladi. **2-kod** bilan asosiy vositalar obyektlarini kengaytirish, rekonstruksiya qilish, texnik qayta qurollantirish hamda modernizatsiyalashda ularning boshlang'ich qiymatini oshishiga olib keladigan harajatlar ko'rsatiladi. Asosiy vositalar obyektlarini modernizatsiyalash va rekonstruksiya qilish bilan bog'liq harajatlar bo'yicha hisob-kitob ishlari kapital qo'yilmalarni hisoblash tartibiga muvofiq olib boriladi. **3-kod** bilan geologik qidiruv ishlari, neft, gaz va termal suvlardan foydalanish uchun burg'ulash ishlari, kelgusi yillar qurilishi uchun loyiha-qidiruv ishlari, qurilish bilan bog'liq bo'lmagan va qurilish (yangi qurilish, kengaytirish, rekonstruksiya qilish, texnik qayta qurollantirish, modernizatsiyalash) smetasiga kiritilmagan mashinalar asbob uskunalar, inventarlarni sotib olishga ketgan harajatlar aks ettiriladi.

K ustunda milliy valyutaga (so'mga) o'tkazishda foydalanilgan, operatsiya amalga oshirilgan sanadagi Markaziy bank tomonidan o'rnatilgan AQSH dollari kursi ko'rsatiladi.

1-bob 1-ustunda "Barcha moliyalashtirish manbalaridan asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar" yangi va import orqali xarid qilingan asosiy vositalar aks ettiriladi. **Bularga: ularning boshlang'ich qiymatini oshirishga olib keladigan yangi qurilish, kengaytirish, obyektlarni rekonstruksiya va modernizatsiya qilish uchun ketgan xarajatlar, mashinalar, asbob-uskunalar, transport vositalari, yer holatini yaxshilash uchun xarajatlar, geologik qidiruv ishlariga, asosiy podani shakllantirishga va ko'p yillik o'simliklarni o'tkazishga ketgan xarajatlar kiradi. Mazkur satrda tashkilot moliyalashtirishining barcha manbalari hisobidan asosiy kapitalga investitsiyalar hamda texnik va hayriya yordam, "MEN" shartnomalari, ta'sischilarning yangi asosiy vosita sifatidagi badallari, shuningdek intellektual mulkchilik obyektlariga va intellektual faoliyat mahsulotlariga investitsiyalar qo'shib ko'rsatiladi.**

Qurilish va loyiha-qidiruv ishlari harajatlari (to'lov muddatidan qat'iy nazar) haqiqatda bajarilgan (ishlab chiqarilgan) ishlar hajmi o'lchamida kiritiladi. Mashina va uskunalar(montaj talab qiluvchi va talab qilinmaydigan), transport vositalari va boshqa asosiy vositalarni harid qilishga ketgan harajatlar haqiqatda sotib olingan qiymatda (bojxona to'lovlari va yig'imlari, vositachi tashkilotlar xizmati, transport va tayyorlash-ombor harajatlari qo'shgan holda) belgilangan manzilga tushgandan so'ng va asosiy vositalarni oldi-sotdi dalolatnomasiga asosanib buyurtmachi (qabul qiluvchi) tomonidan kirim qilingandan so'ng ko'rsatiladi, **import uskuna sotib olingan holatda esa – mulkdor o'zgargan vaqtdan so'ng (shartnoma shartlariga asosan)**. Chet el valyutasiga olingan import asbob-uskunalar qiymati, AQSh dollaridan farqli, bojxona deklaratsiyasini rasmiylashtirish uchun qabul qilingan sanadagi O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan yoki mulkdor o'zgargan vaqtdan so'ng (shartnoma shartlariga asosan) belgilangan kursda hisoblanadi. **Hisobot davridagi qurilish-montaj ishlarining oldindan to'lovlariga, yo'ldagi va tayyorlanayotgan uskunalarining to'lovlariga va boshqa avans to'lovlariga xarajatlar o'zlashtirilgan investitsiyalarga qo'shilmaydi.**

Qurilish obyekti bir nechta tashkilot (tashkilot)lar tomonidan amalga oshirilganda, shu obyekt investitsiyasi ulushidagi ishtiroki bo'yicha belgilangan tartibda tashkilotlardan biri – titul egasi (bosh quruvchi)ga beriladi va u obyekt bo'yicha ma'lumot butunligicha va umumiy asosda hisobotda aks ettiriladi. Investitsiyalarni bosh quruvchiga o'tkazgan hissador tashkilotlar ushbu investitsiyalarni hisobotda aks ettirmaydilar.

2-ustun: qurilish-montaj ishlari" bino va inshootlarni qurish bo'yicha va energetika, texnologik va boshqa uskunalar (ShNK 4.01.16-09 ning 2.7, 2.8, 4.12 bo'limlariga mos holda)ning montaji bo'yicha qurilish-montaj ishlari ko'rsatiladi.

3-ustun: “xo‘jalik usulida amalga oshirilgan” o‘z ehtiyojlari uchun o‘z kuchlari bilan amalga oshirgan xo‘jalik usulidagi, shuningdek, qurilishni amalga oshirish uchun tashkilot tomonidan asosiy faoliyatdagi ishchilar jalb qilinib, ularga qurilish naryadi bo‘yicha ish haqlari to‘lanadigan hamda o‘z ehtiyojlari uchun qurilishni (qurilish pudrati shartnomalari doirasidan tashqari, masalan, tashkilotning ma‘muriy xo‘jalik binolarini rekonstruksiya qilishda, shaxsiy ishlab chiqarish bazasini qurishda va hokazo) amalga oshiruvchi qurilish tashkilotlarining qurilish-montaj ishlari olib ko‘rsatiladi. Agar xo‘jalik usulidagi qurilishning alohida ishlarini pudratchi tashkilotlar amalga oshirsa, bunday ishlar ushbu ustunda ko‘rsatilmaydi.

4-ustun: “norezident-pudratchilar tomonidan o‘z kuchi bilan bajarildi” O‘zbekiston Respublikasi hududidagi yirik qurilish obyektlari bo‘yicha ma‘lumotlar ajratib ko‘rsatiladi. Bajarilgan hajm qo‘shimcha qiymat solig‘isiz ko‘rsatiladi. Ushbu satrda pudratchi – norezidentlarning loyihalarini amalga oshirish muddati 1 yildan kam bo‘lgan qurilish-montaj ishlari aks ettirilmaydi.

5-ustun: Asosiy fondlar qiymatini oshirmaydigan xarajatlar aks ettiriladi, ya‘ni bu asosiy vositaning (bino, inshoot, mashina, uskuna va h.k.) **boshlang‘ich yoki balans qiymatini ko‘paytirmaydigan**, balki joriy faoliyat xarajatlari sifatida hisobga olinadigan xarajatlardir. Bunday xarajatlarga joriy ta‘mirlash xarajatlari, ekspluatatsiya bilan bog‘liq xarajatlar, saqlash va xizmat ko‘rsatish, sug‘urta va boshqa shularga o‘xshash xarajatlar kiradi.

6-ustun: Bu ustunda **qurilish sohasiga tegishli asosiy vositalarni (binolar, inshootlar, uskunar) hisobdan chiqarish yoki buzish natijasida korxonaga ko‘rgan moliyaviy zarar** aks ettiriladi.

7-ustunda jami asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalardan (1-ustundan) atrof-muhitni muhofaza qilish va tabiiy boyliklardan oqilona foydalanishga yo‘naltirilgan investitsiyalar ajratib ko‘rsatiladi.

2-bobda sotish uchun mo‘ljallangan turar joy va noturar joy binolarini foydalanishga topshirish qiymatlari (20 hisobga “Asosiy ishlab chiqarish” kiritilgan qurilishga ketgan xarajatlar) ko‘rsatiladi. Sotish uchun mo‘ljallangan turar joy va noturar joy binolarini foydalanishga topshirish qiymatlari E ustunda moliyalashtirish manbalari bo‘yicha taqsimlanadi. B ustunda qurilayotgan turar yoki noturar joy obyekti joylashgan manzili bo‘yicha mos MHOBT kodlari tanlanadi. D ustunda sotish uchun mo‘ljallangan qurilish obyekti turar yoki noturar joy ekanligi tanlanadi.

3-bob. “Manzilli dasturi”ga kiritilgan ijtimoiy soha obyektlarining yangi qurilishi, rekonstruksiya va kapital ta‘mirlash ishlarini amalga oshiruvchi buyurtmachi – tashkilotlar taqdim etadilar. Obyektlar ruyxati keyingi sahifada ko‘rsatilgan.

Ma‘lumotlar har bir obyekt bo‘yicha alohida satrlarda ko‘rsatiladi.

A ustunida obyektning raqami kiritiladi

B ustunida obyektning nomlanishi yoziladi.

D ustunida keyingi sahifada keltirilgan obyektlar ro‘yxatiga mos keluvchi obyektlar satr kodi ko‘rsatiladi. Masalan: 576 satr kodi– Oliy ta‘lim muassasasi

E ustunda obyekt joylashgan manzil kodi (MHOBT) qo‘yiladi.

F ustunida qurilish turining xos raqami bo‘yicha obyektning **loyihalashtirish uchun topshiriqqa** muvofiq qo‘yiladi: 1 – yangi qurilish, 2 – qayta qurilish (rekonstruksiya), 3 – kapital ta‘mirlash.

G ustunida obyektning qurilish holatining xos raqami qo‘yiladi: 1 – hisobot yilida ishga tushiriladigan obyekt, 2 – kelgusi yili qurilishi davom ettiriladigan obyekt.

H ustuni ishga tushiriladigan obyektlarning sonini hisobga olish uchun to‘ldiriladi. Masalan, kasb-hunar kollejlari, akademik litseylar va umumta‘lim maktablarining o‘quv binolari alohida ishga tushiriluvchi majmua sifatida qurilishi va topshirilishi mumkin. Agar obyekt “Manzilli dasturga” birinchi marta kiritilgan bo‘lsa, G ustuniga 1-xos raqami qo‘yiladi va uning ishga tushirilishi (obyektning hammasi yoki alohida majmua) ishga tushirilgan birlik hisoblanadi. Alohida ishga tushiriluvchi majmua o‘tgan hisobot yilida topshirilgan bo‘lsa, bu obyektga 2-xos raqami qo‘yiladi. Bu holatda obyekt ishga tushirilgan birlik hisobiga olinmaydi.

I ustunida moliyalashtirish manbaining xos raqami ko‘rsatiladi: 1- davlat byudjeti, 2- tashkilotning o‘z mablag‘lari, 3- chet el investitsiyasi va kreditlari, 4- moliyalashtirishning boshqa manbalari. **1, 2, 3, 4** va **6** ustunlarda belgilangan tartib bo‘yicha tasdiqlangan qurilish tugallangan (rekonstruksiya) obyektlarni qabul qilish dalolatnomalari asosida ishga tushirilgan quvvatlar (birlik, o‘quvchi o‘rin, yotoqxonalaridagi o‘rinlar, kv.m. hovuz yuzasi, kasalxonadagi o‘rinlar, qatnov) va asosiy fondlar qiymati haqida ma‘lumot. Davlat qabul komissiyasi dalolatnomasi tasdiqlanganligi to‘g‘risidagi qaror (buyruq) raqami va sanasi keltiriladi. Kapital ta‘mirlashni tugatilgandan so‘ng, foydalanishga topshirish dalolatnomasiga muvofiq 1 (maktablar, kollejlari, litseylar, oliy ta‘lim muassasalari, suv havzalari, kasalxonalar va boshqalar bo‘yicha) va 2 (o‘quvchilar uchun yotoqxonalar, poliklinikalar, qishloq vrachlik punktlari bo‘yicha) ustunlarda 1 (obyekt) raqami qo‘yiladi. Kapital ta‘mirlash bo‘yicha (o‘quvchi o‘rinlari, yotoqlar, smenada qatnovlar va boshqalar) 1 va 2 ustunlarda obyekt quvvati natijada aks ettirilmaydi.

5-ustunda, hisobot davrida ishga tushirilgan yoki kelasi yillarga o‘tuvchi obyektlar bo‘yicha o‘zlashtirilgan investitsiyalar ko‘rsatiladi. Agar obyekt ikki va undan ortiq moliyalashtirish manbai orqali amalga oshirilsa, u holda 4 ustunda har bir manba alohida satrlarda ko‘rsatiladi.

Shaklning 1- bobida ko‘rsatiladigan ma‘lumotlarning faoliyat turlari ro‘yxati

1-ilova

Faoliyat turi kodi	Faoliyat turi nomi
--------------------	--------------------

10	Dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik va bu sohalarda xizmat ko'rsatish
20	O'rmonchilik va yog'och tayyorlash
30	Baliq ovlash va akvakultura
50	Ko'mir va lingit qazib olish
61	Xom neft qazib olish
62	Tabiiy gaz qazib olish
71	Temir rudasini qazib olish
72	Rangli metall rudalarini qazib olish
80	Tog'-kon sanoati bilan bog'liq boshqa faoliyat
891	Kimyo sanoati va o'g'itlar ishlab chikarish uchun mineral xom ashyolar kazib olish
90	Tog'-kon sanoati sohasidagi texnik xizmatlar
100	Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish
1061	Tegirmon yorma sanoati mahsulotlari ishlab chiqarish
1091	Fermalarda boqiladigan xayvonlar uchun tayyor ozuqa ishlab chiqarish
110	Ichimliklar ishlab chiqarish
120	Tamaki mahsulotlari ishlab chiqarish
130	To'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish
140	Kiyim ishlab chiqarish
150	Teri va unga tegishli mahsulotlar ishlab chiqarish
160	Yog'och va po'kak buyumlar (mebel dan tashqari), pohl va to'qish uchun materiallardan buyumlar ishlab chiqarish
170	Qog'oz va qog'oz mahsulotlari ishlab chiqarish
180	Yozilgan materiallarni nashr qilish va aks ettirish
190	Koks va neftni qayta ishlash mahsulotlari ishlab chiqarish
200	Kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish
210	Asosiy farmatsevtika mahsulotlari va preparatlari ishlab chiqarish
220	Rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish
230	Boshqa no metall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish
236	Beton, gips va sementdan buyumlar ishlab chiqarish
237	Toshni kesish, ishlov berish va pardozlash
240	Metallurgiya sanoati
244	Asosiy kimmatbaho va rangli metallarni ishlab chiqarish
250	Mashina va uskunalardna tashqari tayyor metall buyumlar ishlab chiqarish
260	Kompyuterlar, elektron va optik mahsulotlar ishlab chiqarish
270	Elektr uskunalar ishlab chiqarish
280	Boshqa toifalarga kiritilmagan mashina va uskunalar ishlab chiqarish
290	Avtotransport vositalari, treylerlar va yarim pritseplar ishlab chiqarish
300	Boshqa transport uchkunalar ishlab chiqarish
310	Mebel ishlab chiqarish
320	Boshqa tayyor buyumlar ishlab chiqarish
330	Mashina va uskunalarini ta'mirlash va o'rnatish

350	Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash
351	Elektr energiyasini ishlab chikarish, uzatish va taksimlash
360	Suvni yig'ish, qayta ishlash va taqsimlash
370	Kanalizatsiya tizimi
380	Chiqindilarni yig'ish, ishlov berish, yo'qotish, utilitatsiya qilish
390	Tiklash va chiqindilarni yo'qotish sohasidagi boshqa xizmatlar
410	Binolar va inshootlar qurish
420	Fuqarolik ob'ektlarini qurish
430	Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari
450	Avtomobil va motosikllarning ulgurji va chakana savdosi va ularni ta'mirlash
452	Motorli transport vositalarini ta'mirlash va texnik xizmat ko'rsatish
460	Avtomobillar va motosikllar savdosidan tashqari ulgurji savdo
470	Avtomobillar va motosikllar savdosidan tashqari chakana savdo
490	Quruqlikdagi va quvur transporti
491	Temir yo'l yo'lovchi transporti, shaharlararo
492	Temir yo'l yuk transporti
495	Quvurlar orqali yuk tashish
500	Suv transporti
510	Havo transporti
520	Ombor xo'jaligi va yordamchi transport faoliyati
530	Pochta va kuryerlik faoliyati
550	Yashash bo'yicha xizmatlar
552	Dam olish kunlarida va boshqa qisqa yashash muddatlarida turar joy bilan ta'minlash
553	Turistik oromgoxlar, dam olish va ko'ngilochar parklar va shaxarchalar
560	Oziq-ovqat mahsulotlari va ichimliklar yetkazish bo'yicha xizmatlar
580	Nashriyotchilik faoliyati
590	Kino- videofilmlar, televizion dasturlar, fonogrammalar va musiqali yozuvlarni ishlab chiqarish
600	Dasturlar yaratish bo'yicha faoliyat va teleko'rsatuv va radioeshittirish
610	Aloqa
620	Kompyuter dasturlashtirish, maslahat berish va boshqa yordamchi xizmatlar
630	Axborot xizmati ko'rsatish sohasidagi faoliyat
640	Sug'urtalash va nafaqa ta'minoti bo'yicha xizmatlardan tashqari moliyaviy xizmatlar
650	Majburiy ijtimoiy sug'urtalashdan tashqari sug'urtalash, qayta sug'urtalash va nafaqa jamg'armalari faoliyati
660	Moliyaviy xizmatlar ko'rsatish va sug'urtalash bo'yicha yordamchi faoliyat
680	Ko'chmas mulk bilan operatsiyalar
690	Huquq va buxgalterlik hisobi sohasidagi faoliyat
700	Bosh kompaniyalar faoliyati; boshqarish masalalari bo'yicha maslahat berish
710	Me'morchilik, muxandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi faoliyat
7112	Muhandislik izlanishlari sohasidagi faoliyat va bu sohalarda texnik maslahatlar berish
720	Ilmiy tadqiqotlar va ishlanmalar

730	Reklama faoliyati va bozor kon'yunkturasini o'rganish
740	Boshqa professional, ilmiy va texnika faoliyati
750	Veterinariya faoliyati
770	Ijara, prokat, lizing
780	Ishga joylashtirish
790	Turoperatorlar, turagentlar va boshqa turizm sohasida xizmat ko'rsatuvchi tashkilotlar faoliyati
800	Xavfsizlikni ta'minlash va surishtiruv o'tkazish bo'yicha faoliyat
810	Binolarga xizmat ko'rsatish va landshaftni obodonlashtirish bo'yicha faoliyat
812	Yig'ishtirish bo'yicha faoliyat
820	Ma'muriy-boshqaruv, xo'jalik va boshqa yordamchi xizmat ko'rsatish sohasidagi faoliyat
840	Davlat boshqaruvi va mudofaa; majburiy ijtimoiy ta'minot
850	Ta'lim
860	Sog'liqni saqlash sohasidagi faoliyat
870	Yashash uchun joy bilan ta'minlagan holda parvarishlash
880	Yashash uchun joy bilan ta'minlamagan holda ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish
900	Ijod, san'at va ko'ngil ochish sohasidagi faoliyat
910	Kutubxonalar, arxivlar, muzeylar va boshqa madaniyat muassasalari
920	Azartli o'yinlarni tashkil qilish va garov tuzish bo'yicha xizmatlar
930	Sport, dam olishni va ko'ngil ochishni tashkil etish sohasidagi faoliyat
931	Sport sohasidagi faoliyat
940	A'zolik tashkilotlari faoliyati
950	Kompyuterlarni, shaxsiy foydalanish buyumlari va maishiy tovarlarni ta'mirlash
960	Boshqa shaxsiy xizmatlar ko'rsatish
1000	<u>Barcha faoliyat turlaridan tashqari</u> : turar-joy qurilishiga investitsiyalar

**“O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiy faoliyat turlari
umumdavlat tasniflagichi” (IFUT-2) kodlari bo‘yicha
kreativ industriya sohasidagi iqtisodiy faoliyat turlari
yig‘ma ro‘yxati**

2-ilova

T/r	Kod	Nomlanishi
I. Adabiy ijod		
1.	90.03.0*	San'at sohasidagi faoliyat
II. Amaliy san'at va hunarmandchilik		
2.	13.91.0	To'qilgan va trikotaj polotno ishlab chiqarish
3.	13.92.0*	Kiyimdan tashqari tayyor to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish
4.	13.93.0	Gilam va gilam mahsulotlari ishlab chiqarish
5.	13.99.0*	Boshqa toifalarga kiritilmagan to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish
6.	14.11.0*	Charmdan kiyimlar ishlab chiqarish
7.	14.13.0*	Boshqa ustki kiyimlar ishlab chiqarish

8.	14.14.0*	Ichki kiyimlar ishlab chiqarish
9.	14.19.0*	Boshqa kiyimlar va aksessuarlar ishlab chiqarish
10.	14.20.0*	Mo'ynali mahsulotlar ishlab chiqarish
11.	15.12.0*	Chemodanlar, ayollar sumkalari va teridan boshqa buyumlar ishlab chiqarish
12.	15.20.0*	Poyafzal ishlab chiqarish
13.	16.29.0	Boshqa yog'och buyumlar ishlab chiqarish; po'kak, pohl va to'qish uchun materiallardan buyumlar ishlab chiqarish
14.	17.11.0*	Qog'oz massasi va sellyuloza ishlab chiqarish
15.	17.12.0*	Qog'oz va karton ishlab chiqarish
16.	17.22.0*	Xo'jalik-maishiy va sanitariya-gigiyenaga mo'ljallangan qog'oz buyumlar ishlab chiqarish
17.	17.23.0*	Yozuv qog'ozini ishlab chiqarish
18.	17.24.0*	Gulqog'oz ishlab chiqarish
19.	17.29.0*	Qog'oz va kartondan boshqa buyumlar ishlab chiqarish
20.	22.29.0*	Boshqa plastmassa buyumlar ishlab chiqarish
21.	23.11.0	Listlangan shisha ishlab chiqarish
22.	23.12.0	Listlangan shishani qoliplash va ishlov berish
23.	23.13.0	Kovak shisha buyumlar ishlab chiqarish
24.	23.14.0	Shisha tola ishlab chiqarish
25.	23.19.0	Boshqa shisha buyumlarni, jumladan texnik buyumlarni, ishlab chiqarish va ishlov berish
26.	23.41.0	Maishiy va dekorativ keramik buyumlar ishlab chiqarish
27.	23.49.0	Boshqa keramik buyumlar ishlab chiqarish
28.	25.71.0*	Ovqatlanish anjomlari ishlab chiqarish
29.	25.72.0*	Qulf, ilmoq va oshiq-moshiqlar ishlab chiqarish
30.	25.73.0*	Asboblar ishlab chiqarish
31.	25.91.0*	Metall bochkalar va shu kabi idishlar ishlab chiqarish
32.	25.92.0*	Yengil metallardan upakovka materiallari ishlab chiqarish
33.	25.93.0*	Simdan buyumlar, zanjirlar va prujinalar ishlab chiqarish
34.	25.94.0*	Mahkamlash uchun va rezbali buyumlar ishlab chiqarish
35.	25.99.0*	Boshqa toifalarga kiritilmagan tayyor metall buyumlar ishlab chiqarish
36.	27.40.0*	Elektr yoritish uskunalarini ishlab chiqarish
37.	28.95.0*	Qog'oz va karton tayyorlash uchun mashina va uskunalar ishlab chiqarish
38.	28.96.0*	Plastmassa va rezinani qayta ishlash uchun uskunalar ishlab chiqarish
39.	28.99.0*	Boshqa toifalarga kiritilmagan, maxsus vazifalarga mo'ljallangan boshqa mashina va uskunalar ishlab chiqarish
40.	31.01.0*	Ofis va magazinlar uchun mebel ishlab chiqarish
41.	31.02.0*	Oshxona uchun mebel ishlab chiqarish
42.	31.03.0*	To'shaklar ishlab chiqarish
43.	31.09.0*	Boshqa mebellar ishlab chiqarish
44.	32.12.0	Zargarlik buyumlari va shu kabi buyumlar ishlab chiqarish
45.	32.13.0	Bijuteriya va shu kabi buyumlar ishlab chiqarish
46.	32.40.0*	O'yin va o'yinchoqlar ishlab chiqarish
47.	32.50.0*	Meditsina va stomatologiya asboblari va jihozlari ishlab chiqarish
48.	32.91.0*	Supurgi va cho'tkalar ishlab chiqarish
49.	32.99.0*	Boshqa toifalarga kiritilmagan boshqa mahsulotlar ishlab chiqarish
III. Arxitektura, loyihalashtirish va urbanistika		
50.	71.11.0	Me'morchilik sohasidagi faoliyat

51.	71.12.0	Muhandislik izlanishlari sohasidagi faoliyat va bu sohalarda texnik maslahatlar berish
IV. Audiovizual san'at		
52.	59.11.0	Kino- videofilmlar va televizion dasturlar ishlab chiqarish
53.	59.12.0	Kino- videofilmlar va televizion dasturlarni ishlab chiqarishdan keyingi bosqich
54.	59.13.0	Kinofilmlar, video va televizion dasturlarni tarqatish
55.	59.14.0	Kinofilmlar namoyish qilish
56.	59.20.0	Fonogrammalar va musiqali yozuvlarni nashr qilish bo'yicha faoliyat
57.	74.20.0	Fotografiya sohasidagi faoliyat
V. Ijrochilik san'ati		
58.	90.01.0	Teatrlar faoliyati
59.	90.03.0*	San'at sohasidagi faoliyat
VI. Konsert-tomosha faoliyatini va ommaviy-madaniy tadbirlarni tashkil etish		
60.	18.20.0	Axborot tarqatuvchilardagi yozuvlarni aks ettirish
61.	32.20.0	Musiqas asboblari ishlab chiqarish
62.	85.52.0	Madaniyat sohasidagi ta'lim
63.	90.02.0*	Spektakllar namoyishini texnik jihatdan qo'llab-quvvatlash
64.	90.04.0	Teatr va konsert zallari faoliyati
VII. Moda va dizayn san'ati		
65.	74.10.0	Ixtisoslashgan dizaynerlik faoliyati
VIII. Muzeylar, badiiy galereyalar (ko'rgazmalar), axborot-kutubxona faoliyati		
66.	91.01.0	Kutubxonalar va arxivlar faoliyati
67.	91.02.0	Muzeylar faoliyati
IX. Nashriyot va matbaa sohasidagi ijodiy faoliyat		
68.	18.12.0	Matbaa faoliyatining boshqa turlari
69.	18.13.0	Bosma shakllarni tayyorlash va informatsion faoliyat
70.	18.14.0	Broshyuralash-muqovalash va pardoqlash faoliyati va ular bilan bog'liq xizmatlar
71.	58.11.0	Kitoblar nashr qilish
72.	58.19.0	Nashriyotchilik faoliyatining boshqa turlari
73.	74.30.0	Yozma va og'zaki tarjima
X. Ommaviy axborot vositalari sohasidagi va Internet jahon axborot tarmog'i orqali uzatish yo'li bilan amalga oshiriladigan ijodiy faoliyat		
74.	18.11.0	Gazetalar nashr qilish
75.	58.13.0	Gazetalar nashr qilish
76.	58.14.0	Jurnallar va davriy nashrlar nashr qilish
77.	60.10.0	Radioeshittirish
78.	60.20.0	Televizion dasturlarni yaratish va namoyish qilish bo'yicha faoliyat
79.	63.12.0	Web-portallar
80.	63.91.0	Axborot agentliklari faoliyati
XI. Prodyuserlik faoliyati		
81.	90.02.0*	Spektakllar namoyishini texnik jihatdan qo'llab-quvvatlash
XII. Raqamli texnologiyalar sohasidagi ijodiy faoliyat		
82.	26.11.0*	Elektron qismlar ishlab chiqarish
83.	26.12.0*	Elektron yuklash panellari ishlab chiqarish
84.	26.20.0*	Kompyuterlar va periferik uskunalarni ishlab chiqarish
85.	26.40.0*	Maishiy elektronika asboblari ishlab chiqarish

86.	58.21.0	Kompyuter o'yinlarini chiqarish
87.	58.29.0	Boshqa dasturiy ta'minotlarni chiqarish
88.	62.01.0	Kompyuter dasturlashtirish sohasidagi faoliyat
89.	62.02.0	Kompyuter texnologiyalari sohasidagi maslahat xizmatlari
90.	62.03.0	Kompyuter uskunalari boshqarish bo'yicha faoliyat
91.	62.09.0	Axborot texnologiyalari va kompyuter tizimlari sohasidagi boshqa faoliyat turlari
92.	63.11.0	Ma'lumotlarni joylashtirish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar
93.	63.99.0	Boshqa toifalarga kiritilmagan, axborot xizmati ko'rsatish bo'yicha boshqa faoliyat
XIII. Reklama sohasidagi ijodiy faoliyat		
94.	73.11.0	Reklama agentliklari
95.	73.12.0	Ommaviy axborot vositalarida reklama berish
XIV. San'at ashyolari va madaniy meros obyektlarini asrashga doir faoliyat		
96.	91.03.0	Tarixiy joylar va binolarni, madaniyat yodgorliklarini asrash bo'yicha faoliyat
XV. Tasviriy san'at		
97.	90.03.0	San'at sohasidagi faoliyat

**Ba'zi ijodiy tovarlar ishlab chiqarishga hissa qo'shadigan sohalar*

SHAKLNING I-BOB MA'LUMOTLARI BO'YICHA MAMLAKATLAR VA XALQARO MOLIYA TASHKILOTLARI RO'YXATI

3-ilova

Raqamli kodi	Mamlakatning qisqa nomi
036	AVSTRALIYA
040	AVSTRIYA
031	OZARBAYJON
248	ALAND OROLLARI
008	ALBANIYA
012	JAZOIR
016	AMERIKA SAMOASI
660	ANGILYA
024	ANGOLA
020	ANDORRA
010	ANTARKTIDA
028	ANTIGUA VA BARBUDA
032	ARGENTINA
051	ARMANISTON
533	ARUBA
004	AFG'ONISTON
044	BAGAM OROLLARI

050	BANGLADESH
052	BARBADOS
048	BAHRAIN
112	BELARUS
084	BELIZ
056	BELGIYA
204	BENIN
060	BERMUD OROLLARI
100	BOLGARIYA
068	BOLIVIYA
535	BONEYR, SINT-ESATIUS I SABA
070	BOSNIYA VA GERTSEGOVINA
072	BOTSVANA
076	BRAZILIYA
086	BRITAN HUDUDLARI
096	BRUNEY-DORUSSALOM
074	BUVE
854	BURKINA-FASO
108	BURUNDI
064	BUTAN
548	VANUATU
336	VATIKAN
348	VENGRIYA
862	VENESUELA
850	VIRGIN OROLLARI (AQSh)
092	VIRGIN OROLLARI (BRIT.)
704	VETNAM
266	GABON
332	GAITI
328	GAYANA
270	GAMBIYA
288	GANA
312	GVADELUPA
320	GVATEMALA
324	GVINEYA
624	GVINEYA-BISAU
276	GERMANIYA
831	GERNSI
292	GIBRALTAR
340	GONDURAS
344	GONKONG
308	GRENADA
304	GRENLANDIYA
300	GRETSIYA

268	GRUZIYA
316	GUAM
208	DANIYA
832	DJERSI
262	DJIBUTI
212	DOMINIKA
214	DOMINIKA RESPUBLIKASI
818	MISR
894	ZAMBIYA
732	G' ARBIY SAXROI KABIR
716	ZIMBABVE
376	ISROIL
356	HINDISTON
360	INDONEZIYA
400	IORDANIYA
368	IROQ
364	ERON
372	IRLANDIYA
352	ISLANDIYA
724	ISPANIYA
380	ITALIYA
887	YAMAN
132	KABO-VERDE
398	QOZOG'ISTON
136	KAYMAN
116	KAMBOJA
120	KAMERUN
124	KANADA
634	QATAR
404	KENIYA
196	KIPR
296	KIRIBATI
156	XITOIY
166	KOKOS OROLLARI
170	KOLUMBIYA
174	KOMOR OROLLARI
178	KONGO
180	KONGO (KDR)
410	KOREYA
408	KOREYA (KXDR)
188	KOSTA-RIKA
384	KOT D'IVUAR
192	KUBA
414	QUVAYT

417	QIRG'IZISTON
531	KYURASAO
418	LAOS
428	LATVIYA
426	LESOTO
430	LIBERIYA
422	LIVAN
434	LIVIYA
440	LITVA
438	LIXTENSHTeyN
442	LYUKSEMBURG
480	MAVRIKIY
478	MAVRITANIYA
450	MADAGASKAR
175	MAYOTTA
446	MAKAO
807	MAKEDONIYA
454	MALAVI
458	MALAYZIYA
466	MALI
581	TINCH OKEANI KICHIK OROLLARI (AQSh)
462	MALDIV
470	MALTA
580	MARIAN OROLLARI
504	MAROKASH
474	MARTNIKA
584	MARSHALL OROLLARI
484	MEKSIKA
583	MIKRONEZIYA
508	MOZAMBIK
498	MOLDOVA
492	MONAKO
496	MO'G'ULISTON
500	MONTSERRAT
104	MYANMA
516	NAMIBIYA
520	NAURU
524	NEPAL
562	NIGER
566	NIGERIYA
530	NIDERLANDIYA ANTILLARI
528	NIDERLANDIYA
558	NIKARAGUA
570	NIUE (YANGI ZEL.)

554	YANGI ZELANDIYA
540	YANGI KALEDONIYA (FR.)
578	NORVEGIYA
830	NORMAND OROLLARI
574	NORFOLK
784	BIRL. ARAB AMIRLIKLARI
833	MEN OROLI
162	ROJDESTVO OROLI
184	KUK OROLLARI
512	UMMON
586	POKISTON
585	PALAU
275	FALASTIN
591	PANAMA
598	PAPUA - YANGI GVINEYA
600	PARAGVAY
604	PERU
612	PITKERN
616	POLSHA
620	PORTUGALIYA
630	PUERTO-RIKO
638	REYUNON
643	ROSSIYA
646	RUANDA
642	RUMINIYA
222	SALVADOR
882	SAMOA
678	SAN-TOME VA PRINSIPI
674	SAN-MARINO
682	SAUDIYA ARABISTONI
748	SVAZILEND
654	AVLIYO ELENA
690	SEYSHEL
652	SEN-BARTELEMI
534	SEN-MARTEN (NID.)
663	SEN-MARTEN (FR.)
666	SEN-PYER VA MIKELON
686	SENEGAL
670	SENT-VINSENT VA GRENADIN
659	SENT-KITS VA NEVIS
662	SENT-LYUSIYA
688	SERBIYA
702	SINGAPUR
760	SURIYA

703	SLOVAKIYA
705	SLOVENIYA
826	BIRLASHGAN QIROLLIK (BUYUK BRITANIYA)
090	SOLOMON OROLLARI
706	SOMALI
736	SUDAN
740	SURINAM
840	AQSh
694	SERRA-LEONE
762	TOJKISTON
764	TAILAND
158	TAYVAN
834	TANZANIYA
796	TERKS VA KAYKOS
626	TIMOR-LESTE
768	TOGO
772	TOKELAU
776	TONGA
780	TRINIDAD VA TOBAGO
798	TUVALU
788	TUNIS
795	TURKMANISTON
792	TURKIYA
800	UGANDA
860	O`ZBEKISTON
804	UKRAINA
876	UOLLIS VA FUTUNA
858	URUGVAY
234	FARER OROLLARI
242	FIJI
608	FILIPPIN
246	FINLENDIYA
238	FOLKLEND OROLLARI
260	FR. JANUBIY HUDUDLARI
250	FRANSIYA
254	FRANSUZ GVIANASI (FR.)
258	FRANSUZ POLINEZIYASI
334	XERD VA MAKDONALD
191	XORVATIYA
140	MARKAZIY - AFR. RESPUBLIKASI
148	CHAD
499	CHERNOGORIYA
203	CHEXIYA
152	CHILI

756	SHVEYSARIYA
752	SHVESIYA
744	SHPIBERGEN VA YAN-MAYEN
144	SHRI-LANKA
218	EKVADOR
226	EKVATORIAL GVINEYA
232	ERITREYA
233	ESTONIYA
231	EFIPIYA
710	JANUBIY AFRIKA
728	JANUBIY SUDAN
239	JANUBIY JORJIYA VA JANUBIY SANDVICH OROLLARI
388	YAMAYKA
392	YAPONIYA
XALQARO BANKLAR VA JAMG`ARMALAR	
960	OTB (Osiyo taraqqiyot banki)
961	OBII (Osiyo infratuzilma investitsiya banki)
962	ETTb (Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki)
963	XTTB (Xalqaro tiklanish va taraqqiyot banki)
964	XMK (Xalqaro moliya korporatsiyasi)
965	JBIC (Yaponiya xalqaro hamkorlik banki)
966	QXRJ (Qishloq xo'jaligini rivojlantirish xalqaro jamg'armasi)
967	QAITJ (Quvayt arab iqtisodiy taraqqiyot jamg'armasi)
968	KFW (Germaniya taraqqiyot banki)
969	JICA (Yaponiya xalqaro hamkorlik agentligi)
970	XTA (Xalqaro taraqqiyot assotsiatsiyasi)
971	ITB (Islom taraqqiyot banki)
972	YaOUGI (Yaxshi ovqatlanish uchun global ittifoq)
973	VICh, sil va bezgakka qarshi kurash global jamg'armasi
974	TASIS
975	OON
977	OPEK fondi
976	XAEA (Xalqaro atom energiyasi agentligi)
978	STJ (Saudiya taraqqiyot jamg'armasi)
979	Jahon banki uglerod fondi
980	Jahon banki
981	Eksimbank (Koreya)
982	Kommersbank (Germaniya)
983	Landesbank Baden Vyrtemberg (Germaniya)
984	Gollandiya taraqqiyot banki

985	XSRIK (Xususiy sektorni rivojlantirish islom korporatsiyasi)
986	Ziraat Bankasi A.A. (Turkiya)
987	XDTB (Xitoy Davlat Taraqqiyot Banki)
988	Eksimbank (Kitay)
989	Rayffayzenbank (Avstriya)
990	Eksimbank (Turkiya)
991	AKA Bank (Germaniya)
992	Fransiya taraqqiyot agentligi
993	Deutsche bank (Germaniya)
994	Evrosiyo taraqqiyot banki
995	Abu-Dabi rivojlantirish jamg'armasi
996	Yevrobond
997	Yevropa investitsiya banki
998	Vneshekonombank (Rossiya)

1-invest asosiy (yillik) hisobot shaklining 3–bobda ma'lumotlari aks etadigan ijtimoiy-madaniy soha obyektlarining nomenklaturasi

3-ilova

Obyekt nomi	Код строки
Turar joy binolari (uylar) va yotoqxonalar	
Uylar soni yotoqxonalarini qo'shgan holda	501
501-satrdan sotish uchun foydalanishga topshirilgan	502
501-satrdan: yotoqxonalar soni	503
Shu jumladan sotish uchun foydalanishga topshirilgan	504
517 satrlardan: mehribonlik uyi soni	505
517 satrlardan: Bolalar uyi soni	506
517 satrlardan: Qariyalar uyi soni	507
Kvartiralar soni (yotoqxonalarsiz)	510
510-satrdan sotish uchun foydalanishga topshirilgan	511
Turar joy uylari va yotoqxonalar	515
515-satrdan sotish uchun foydalanishga topshirilgan	516
515 satrdan - yotoqxonalar	517

517 satrdan – sotish uchun qurilganlar	518
517 satrlardan: mehribonlik uyi soni	519
517 satrlardan: Bolalar uyi soni	520
517 satrlardan: Qariyalar uyi soni	521
517 satrlardan: Maxsus maktab internatlar uchun yotoqxonalar	522
517 satrlardan: Oliy ta'lim muassasalari uchun yotoqxonalar	523
517 satrlardan: litseylar uchun yotoqxonalar	524
517 satrlardan: Kasb-hunar kollejlari uchun yotoqxonalar	525
Suv quvuri	531
Kanalizatsiya	536
Gazlashtirish	538
Issiqlik ta'minoti	543
Mehmonxonalar (sayyohatchilarnikidan tashqari)	545
Kasalxonalar(gospitallar, tug'ruqxonalar, oliy ta'lim muassasalari klinikalari, poliklinikalarning stasionarlari, dispanserlar, tibbiyot-sanitariya qismlari, tumanlardagi tibbiyot birlashmalari va tibbiyot koykalariga ega bo'lgan boshqa muassasalar)	550
Ambulatoriya-poliklinika muassasalari (davolash muassasalari, dispanserlar, tibbiy sanitariya qismlari, ambulatoriyalar, tumanlardagi tibbiyot birlashmalari, ayollar va bolalar maslahatxonalar)	551
Qishloq vrachlik punktlari	552
Sog'liqni saqlash boshqa ob'ektlari (sanepidemstansiyalar, qon quyish stansiyalari, karantin stansiyalari va aholiga tibbiy yordam ko'rsatish bilan bog'liq bo'lmagan tibbiyot muassasalari)	554
Sanatoriyalar (aholi sog'lig'ini tiklash va profilaktikasi uchun mo'ljallangan ixtisoslashtirilgan stasionar tibbiyot muassasalari)	555
Boshqa dam olish uylari (amalda sog'lom odamlarning dam olishi uchun mo'ljallangan sog'lomlashtirish muassasalari, ularga tegishli pansionatlar, oromgohlar)	556
Bolalar sog'lomlashtirish oromgohlari	557
Maktablardagi sport zallari	570
Suzish havzalari (bino ichiga va binoga qo'shimcha ravishda qurilgan yoki alohida qurilgan binoga o'rnatilgan, suvni isitish moslamasiga ega bo'lgan, yopiq va ochiq suv havzalari)	561

Bolalar sport ob'ektlari (sport majmualari, BO'SM va boshqalar)	559
Stadionlar	560
Tekislikdagi sport inshootlari (futbol maydonlari, o'yin maydonchalari va ochiq havodagi sport maydonlari)	563
863 satrdan – tennis kortlari	565
Sport majmualari, alohida turgan sport zallar va boshqalar	558
Motellar (avtomobil yo'llari orqali tranzit harakatlanuvchilar uchun mo'ljallangan, avtomobillar to'xtash shaxobchasiga ega bo'lgan yo'l bo'yidagi mehmonxonalar)	566
Sayyohlik mehmonxonalari	568
Sayyohlik bazalari	569
Oliy ta'lim muassasalari	576
Akademik litseylar	578
Boshqa ixtisoslashtirilgan litseylar	579
